

"INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILINI O'RGATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI"

Ergasheva Nigina Elmurod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Jovliyeva Nafosat Bahodir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda interfaol usullardan foydalanishning afzalliklari va samaradorlik darajasi yoritilgan. An'anaviy darslardan farqli ravishda, interfaol yondashuv o'quvchilarning darsdagi ishtirokini oshirib, ularni faol fikrlash va muloqotga undaydi. Maqolada juftlikda ishslash, guruhli muhokama, rol o'ynash, o'yinlashtirish, multimedia vositalaridan foydalanish kabi metodlarning amaliy jihatlari va ularning o'quvchilarga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. samaradorlik natijasi, interfaol usullar, jonli muloqot, o'qituvchi va o'quvchi o'rtaqidagi muloqot, onlayn platformalar, zamonaviy ta'lif, dars jarayoni, Kahoot, Quizizz.

Bugungi kunda ingliz tilini o'rganish nafaqat bilim darajasini oshirish, balki dunyo bilan hamnafas bo'lishning muhim shartlaridan biridir. O'zbekistonda ham ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shunga mos ravishda ta'lif jarayoniga zamonaviy, interfaol usullarni joriy etish zarurati tug'ilmoqda. Zero, an'anaviy usullar ko'p hollarda o'quvchilarning faolligini oshira olmaydi, ularni passiv tinglovchiga aylantiradi. Interfaol yondashuv esa o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Interfaol metodlar nimani anglatadi? Bu — o'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradigan, ularni faol fikrlash va muloqotga chorlaydigan usullardir. Ular orasida juftlikda ishslash, guruhli topshiriqlar, rol o'ynash, interaktiv testlar va onlayn ilovalardan foydalanish mashhurdir. Masalan, rol o'ynash orqali o'quvchi o'zini real hayotdagi vaziyatda his qiladi: mehmonxonada xona band qilish, do'konda xarid qilish yoki aeroportda suxbatlashish. Bu esa ularni tilni hayotiy tarzda o'rganishga undaydi.

Shuningdek, o'yinlashtirish (gamifikatsiya) orqali raqobat muhitini yaratish, o'quvchilarni rag'batlantirish, faollikka undash mumkin. Masalan, "Kahoot" yoki "Quizizz" platformalari orqali darsda viktorina o'tkazish o'quvchilarni rag'batlantiradi va ularni zeriktirmaydi. "Quizlet" kabi ilovalar esa so'z boyligini mustahkamlashda juda samarali vositadir.

O'rghanish samaradorligini oshirish uchun multimediedan – videolar, audio matnlar, interaktiv darsliklardan ham foydalanish kerak. Bu nafaqat eshitish va tushunishni rivojlantiradi, balki talaffuzni yaxshilashga ham xizmat qiladi. Zamонавиу та'lim jarayonida interfaol yondashuvlar o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Ayniqsa, chet tillarini, jumladan ingliz tilini o'rgatishda interfaol usullar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy o'qitish metodlarida o'qituvchi markazda bo'lsa, interfaol ta'limda o'quvchi asosiy faoliyat egasi hisoblanadi. Bu usullar orqali o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqish, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va real hayotga mos nutq kompetensiyasi shakllanadi. Quyida ingliz tilini o'rgatishda samarali bo'lgan asosiy interfaol usullar bayon etiladi:

1. Juftlikda ishslash (Pair work)

Bu usulda o'quvchilar ikki kishilik juftliklar shaklida topshiriq bajaradilar. Masalan, "Intervyu" yoki "Savol-javob" shaklida dars o'tkazish mumkin. Bu usul o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirib, ularni bir-biriga savol berishga, diqqat bilan tinglashga va javob qaytarishga o'rgatadi.

2. Guruhda ishslash (Group work)

Bu yondashuvda 3–5 kishilik guruuhlar muayyan mavzu ustida ishlaydi, matn tahlil qiladi yoki rollar taqsimlanib, har bir a'zo o'z hissasini qo'shami. Guruhli ish jarayonida o'quvchilarda jamoaviy muloqot ko'nikmalar, liderlik, fikr almashish kabi muhim jihatlar shakllanadi.

3. Rol o'ynash (Role-play)

Rol o'ynash mashqlari o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Masalan: do'konda xarid qilish, restoranlarda buyurtma berish, intervuda qatnashish. Bu usul orqali o'quvchilar so'z boyligini kengaytiradi va tilni real kontekstda qo'llashga o'rganadi.

4. Debatlar va bahs-munozaralar (Debate)

Bu interfaol usul orqali o'quvchilar fikr bildirish, dalillar keltirish va o'z nuqtai nazarini himoya qilishga o'rganadilar. Ayniqsa yuqori bosqichdagi o'quvchilar uchun mos bo'lib, ularning mantiqiy fikrlash va erkin gapirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Gamifikatsiya (Game-based learning)

O'yinlar orqali o'qitish — bu o'quvchilarning e'tiborini jalb etish va rag'batlantirishning samarali yo'lidir. Masalan, "Kahoot", "Quizizz" yoki "Word Bingo" kabi o'yinlar darsga quvnoqlik kiritadi va til o'rganishni yanada qiziqarli qiladi.

6. Multimedia vositalaridan foydalanish

Audio va video materiallar orqali tinglab tushunish, talaffuz va kontekstual anglash ko'nikmalar mustahkamlanadi. Masalan, ingliz tilidagi qisqa filmlar, multfilmlar, interaktiv audiokitoblar o'quvchilarda eshitish orqali o'rganish ko'nikmasini rivojlantiradi.

7. Raqamli texnologiyalar va ilovalar

Zamonaviy darslarda Quizlet, Duolingo, Memrise, Kahoot, Padlet, Mentimeter kabi ilovalardan foydalanish ta'lim jarayonini raqamlashtirish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil ravishda mashq qilishiga va progressni kuzatishga imkon beradi.

8. Taqdimot (Presentation) usuli

O'quvchilardan biror mavzu yuzasidan ingliz tilida taqdimot tayyorlashni so'rash orqali ularda mustaqil izlanish, ijodkorlik va nutqiy ko'nikmalar rivojlanadi. Bu usul, ayniqsa, akademik ingliz tilini o'rgatishda juda foydalidir.

9. "Brainstorming" (Fikrlar portlashi)

Bu metod biror mavzu yoki savol bo'yicha tez va ko'p fikrlar olishga xizmat qiladi. Dars boshida yoki yangi mavzuni ochishda foydalidir. O'quvchilarning erkin fikrashi va faol ishtirokini ta'minlaydi.

10. Savol-javob (Q&A Method)

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi jonli muloqotni shakllantiradi. Bu metod o'quvchilarda tinglash, tushunish va tezkor javob qaytarish ko'nikmasini shakllantiradi. Interfaol usullar orqali ingliz tilini o'rgatish nafaqat o'quvchilarning faolligini oshiradi, balki ularda mustaqil fikrlash, erkin muloqot qilish, tilni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Har bir o'qituvchi o'z darslarini

zamonaviy talablarga mos holda, o'quvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda tashkil etsa, bu yondashuvlarning samarasini aniq ko'rish mumkin.

Interfaol usullarni ingliz tili o'qitish jarayoniga keng miqyosda joriy etish o'quvchilar va o'qituvchilar uchun ko'plab ijobiy natijalarni olib keladi. Bu usullar nafaqat ta'lif sifatini oshiradi, balki o'rganuvchining shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

1. O'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi-An'anaviy darslardan farqli o'laroq, interfaol metodlar orqali o'quvchi zerikmaydi, balki darsga faol jalb etiladi. Har bir dars yangi tajriba, o'yin, muhokama yoki sinovga aylanadi. Bu esa o'quvchining darsga nisbatan motivatsiyasini oshiradi.

2. Til muhitini shakllantirish imkonini beradi-Interfaol usullar – ayniqsa, rol o'ynash, guruhli ishlar, debatlar – o'quvchilarni real muloqot vaziyatlariga olib kiradi. Ular ingliz tilida fikrlashga, his-tuyg'ularini ifodalashga odatlanadilar. Bu orqali sun'iy emas, balki tabiiy til muhitini yaratish mumkin bo'ladi.

3. Nutqiylar kompetensiya rivojlanadi-O'yinlar, savol-javoblar, taqdimotlar orqali o'quvchilar ko'p gapirishga, o'z fikrini aniq va to'g'ri yetkazishga o'rganadi. Bu ularning og'zaki nutq, so'z boyligi va grammatik tuzilmalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini rivojlantiradi.

4. Faol fikrlash va tahliliy yondashuv shakllanadi-Interfaol metodlar – ayniqsa, "brainstorming", debatlar, guruhli muhokamalar – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, mantiqan fikr yuritishga undaydi. Bu esa ularning umumiy intellektual salohiyatini oshiradi.

5. Jamoaviy ishlash ko'nikmasi rivojlanadi-Guruhli ishlarda o'quvchilar bir-biriga qulqoq tutish, fikr almashish, mas'uliyatli bo'lish, liderlik qilish kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni egallaydi. Bu ularni nafaqat til o'rganishda, balki kundalik hayotda ham faol va ijtimoiy shaxs sifatida tarbiyalaydi.

6. O'qituvchining roli o'zgaradi: nazoratchi emas, yo'lboshchiga aylanadi-Interfaol yondashuvlarda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchini yo'naltiruvchi, motivatsiya beruvchi va sherik sifatida ishtirok etadi. Bu esa sinfda sog'lom, samimiy muhitni ta'minlaydi.

7. O'quvchilarning o'z-o'zini baholash va ishonch hissi ortadi-O'z fikrini bildirish, savollarga javob berish, taqdimot qilish orqali o'quvchi o'ziga bo'lgan

ishonchini mustahkamlaydi. Bu esa ularni til o'rganishga nisbatan faol va mustaqil yondashishga undaydi.

8. O'rganilgan bilimlar mustahkam va uzoq muddatli bo'ladi-Amaliy faoliyat orqali o'rganilgan so'zlar, iboralar va grammatik qoidalar ongga chuqurroq singadi. O'quvchilar bu bilimlarni testdan o'tish uchun emas, balki hayotda qo'llash uchun o'zlashtiradi. Interfaol usullarni keng tadbiq etish ingliz tilini o'rganishni nafaqat samarali, balki zavqli va foydali jarayonga aylantiradi. O'quvchi bu jarayon orqali tilni o'zlashtiribgina qolmay, balki ijtimoiy jihatdan ham yetukroq shaxs sifatida shakllanadi.

Bugungi globallashuv davrida ingliz tili nafaqat xalqaro aloqa tili balki ilm-fan texnologiya va biznesning ham asosiy tili hisoblanadi dunyo miqyosida olib borilayotgan ko'plab ilmiy izlanishlar maqolalar patentlar aynan ingliz tilida tayyorlanadi shuning uchun bu tilni chuqur o'zlashtirish har bir davlatning raqobatbardoshligini oshiradi ingliz tilini o'rgangan jamiyat axborotga tezroq kirishadi yangiliklarni moslashuvchan qabul qiladi va global maydonda faol bo'la oladi. Ingliz tilini yaxshi biladigan yoshlar xorijiy grantlar va stipendiyalar orqali rivojlangan mamlakatlarda tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladi ular o'sha yerda olgan bilim va tajribalarini yurtimizga qaytib olib kelishadi bu esa ilmiy salohiyatning oshishiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek ingliz tili xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham muhim vositadir ingliz tilini biladigan mutaxassislar mavjud bo'lgan mamlakatlarda xorijiy kompaniyalar erkin faoliyat yurita oladi bu esa iqtisodiy o'sish yangi ish o'rinnari va texnologik taraqqiyotga olib keladi. Til o'rgatish tizimini kuchaytirish orqali o'quvchilarda global dunyoqarash vujudga keladi ular turli millat madaniyat va qadriyatlarni tushunish va hurmat qilishni o'rganadi bu esa ijtimoiy barqarorlik bag'rikenglik va madaniy hamkorlikni mustahkamlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o'rgatishda interfaol usullardan samarali foydalanish zamонавиъ та'limning ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, ularning fikrlash doirasi kengayadi va til o'rganish jarayoni ko'proq amaliyotga asoslanadi. Juftlikda va guruhda ishslash, rol o'ynash, taqdimotlar tayyorlash, savol-javoblar va texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilar o'z bilimlarini faol tarzda amaliyotga tatbiq etadilar. Ayniqsa, interfaol metodlar yordamida til o'rganish

o‘quvchining faqat eslab qolishiga emas, balki tushunib, mustahkam anglab olishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ingliz tilini chuqur o‘zlashtirish nafaqat shaxsiy rivojlanish balki butun jamiyat va davlat kelajagi uchun ham beqiyos imkoniyatlar eshigini ochadi. Globallashuv davrida ingliz tilini bilish xalqaro aloqalarni mustahkamlash, xorijiy sarmoya va texnologiyalarni jalb qilish, ilm-fan va innovatsion taraqqiyotda yetakchilik qilish imkonini beradi. Har bir o‘quvchining ingliz tilini mukammal egallashi – bu kelajakda raqobatbardosh, tafakkuri ochiq, bilimli va global fikrlovchi avlodni shakllantirish demakdir. Demak, interfaol usullar orqali ingliz tilini o‘rgatish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratadi. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi interfaol metodlarni to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llab, o‘z darslarini yangicha ruhda tashkil qilsa, biz kelajakda ilmli, til biluvchi va intellektual salohiyati yuqori bo‘lgan yoshlar avlodini tarbiyalay olamiz. Bu esa, shubhasiz, Vatanimiz kelajagining porloq bo‘lishida eng muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova M.U. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
2. Alieva D.M. Til o‘rganishda interfaol metodlarning roli. – “Yosh tilshunoslar” jurnali, 2022-yil, 1-son.
3. Mamarasulova G.S. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Brown, H. Douglas. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – Pearson Education, 2015.
5. Harmer, Jeremy. The Practice of English Language Teaching. – Longman, 2012.
6. Richards, Jack C. & Rodgers, Theodore S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
7. Axmedova N.T. Zamonaviy dars va interfaol metodlar. – “Ta’limda innovatsiyalar” jurnali, 2023-yil, 2-son.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-soni qarori: Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish choralarini to‘g‘risida, 2021-yil.